

---

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETINING PEDAGOGIKA  
INSTITUTI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI INNOVATSION  
RIVOJLANISH VAZIRLIGI

DAVLAT TILINI RIVOJLANTIRISH DEPARTAMENTI

BUXORO VILOYAT HOKIMLIGI

**ZAMONAVIY  
TILSHUNOSLIKNING MILLIY  
YUKSALISH VA ILMIY  
TAFAKKUR TARAQQIYOTIDAGI  
O'RNI**

(O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganligining 32 yilligiga  
bag'ishlangan respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari)

BUXORO – 19.10.2021  
«DURDONA» NASHRIYOTI

---

**3-SHO'BA: O'ZBEK TILI RAQAMLI LINGVISTIK  
RESURSINING TAKOMILLASHTIRILISHI**

| <b>Muallif(lar)</b>                         | <b>Mavzu</b>  | <b>Bet</b> |
|---|---|------------|
| <b>Tosheva D.A.</b>                         | A value of oral national creativities for keeping purity of the national language | 168        |
| <b>Salixova Z.A.,<br/>Saidova S.O.</b>      | Читательская компетенция у будущих педагогов                                      | 171        |
| <b>Quvvatova D.H.,<br/>Sharipova Sh.</b>    | Cho'lonning "Oydin kechalarda" hikoyasi va tizimli tahlil                         | 176        |
| <b>Xalilova R.R.</b>                        | Virtual maydonda nutqiy muloqotning o'rni va ahamiyati                            | 183        |
| <b>Maxmudova S.X.,<br/>Fayzullayev M.B.</b> | "Ostona" lingvomadaniy birligining milliy qadriyatlarda voqelanishi               | 186        |

**4-SHO'BA: ONA TILI METODIKASI RIVOJI – XALQ TA'LIMI  
TIZIMI ISLOHIDIR**

| <b>Muallif (lar)</b>                        | <b>Mavzu</b>   | <b>Bet</b> |
|---|--|------------|
| <b>Yuldasheva D.N.</b>                      | Мaktabda ona tili ta'limi: talab va ehtiyoj  | 190        |
| <b>To'yeva Z.N.</b>                         | Баён – она тили таълимининг бош мақсади билан ҳамоҳанг                                   | 194        |
| <b>Yusupova D.Y.</b>                        | Н. Худойбердиева she'riyati tilini o'rganish   | 199        |
| <b>Boltayeva M.Sh.,<br/>Ne'matova D.</b>    | Эффективность применения интерактивных методов на занятиях в высших учебных заведениях   | 204        |
| <b>Ravshanov A.</b>                         | Хуқуқ ва тил илмларининг тараққиёти  | 208        |
| <b>Boltayeva M.Sh.,<br/>Boltayeva M.Sh.</b> | Инновационные методы преподавания русского языка и литературы                            | 213        |
| <b>Ubaydova D.A.,<br/>Abulova M.O.</b>      | Эффективность использования интерактивных методов обучения в преподавании русского языка | 218        |
| <b>Kanaatova G.O.<br/>Amerlan Y.S.</b>      | Интеграция в учебном процессе  | 223        |
| <b>Sharipova D.Q.</b>                       | Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarga grammatik bilimlar berishda izchillik | 228        |

3. Кремлева С. «ЧАТ» как разновидность виртуального общения // <http://sociology.extrim.ru/dip/start.htm>

4. Лошманова Л.Т. Жаргонизированная лексика в бытовой речи молодёжи 50-60-х годов. Автореф. дис. канд. филол. наук. – Ленинград, 1975. – С.57-59.

### “OSTONA” LINGVOMADANIY BIRLIGINING MILLIY QADRIYATLARDA VOQELANISHI

S.X.Maxmudova – BuxDu doktoranti

M.B.Fayzullayev – BuxDU dotsenti

**Annotatsiya:** Maqolada ostona lingvomadaniy birligining ishlatilish uslubi to'xtalib, matnlar asosida tahlil qilindi. Tahlil qilishda ikki yo'nalish asosiy hisoblanib, birinchisi, lingvistik tahlil aynan leksik, ikkinchisi, madaniyat nuqtayi nazaridan tahlildir.

**Kalit so'zlar:** ostona, lingvomadaniy birlik, leksik tahlil, til, madaniyat, ma'naviyat, milliy qadriyatlar, uslubi, leksik-semantik tahlil.

Bizga ma'lumki, inson va insoniyat uchun muhim hisoblangan barcha narsalar, erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik, go'zallik, an'ana va urf-odatlar milliy qadriyatlarimiz hisoblanadi. Ijtimoiy jarayonlar ta'sirida kishilarning qadriyatlar to'g'risidagi qarashlari o'zgarib boradi. Olam, tabiat va jamiyatning eng muhim tomonlarini, qonun qoidalarni, aloqadorlikni ifodalaydigan qadriyatlar umumbashariy xususiyatga ega. Bunday ahamiyatini yo'qotmaydigan, abadiy qadriyatlar muayyan bir elat, millat, xalqning hayoti, turmush tarzi, tili, madaniyati, ma'naviyati, urf-odati, an'analari, o'tmishi va kelajagi bilan bog'liqdir. Bunday qadriyatlar milliy qadriyatlardir.

Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'rifiy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha hisoblanadi. Qadriyatlarning shakllanishida inson axloqi asosiy rol o'ynaydi. Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, muayyan jamiyatda yashovchi kishilar

amal qilishi zarur bo'lgan ma'lum xatti-harakat qoidalari yig'indisidir. Axloq odamlarning bir-birlariga, jamiyatga, davlatga, xalq mulkiga, oilaga, ishlab chiqarish vositalariga, mehnat mahsulotlari va shu kabilarga munosabatini muayyan tartibga soladigan xatti-harakat qoidalari tizimida namoyon bo'ladi. Shuningdek, tarbiyaning ikkinchi yo'nalishi bu axloqdir. Mana shu kabi axloqiy sifatlarni badiiy asarlarni tahlil qilish orqali ko'rishimiz mumkin.

Jumladan, Said Ahmadning "Jimjitlik" romanidan olingan parchada ishlatilgan ostona lingvomadaniy birligining leksik tahlili orqali milliy qadriyatlar to'g'risidagi fikrlarimizni davom ettiramiz.

"Bechora Risolatning shu bittagina nevarasidan boshqa hech kimi yo'q. Tolib bolam, marakaga o'zing bosh bo'l. Hoy, Zaynab yugur, qo'ni-qoshnini chaqir. Yurtga xabar qilishsin. O'lim qursin, o'lingina qursin, shunaqa bemahalda, bemavrid keladi. Qoqilganning ostonasidan o'tadi. Qoqilganni qoqib yiqitadi. Sho'rginang qurg'ur Risolatning ko'rgan kuni ozmidi..." [3,146-b]

Bunda Bodomgul joniga qasd qilganini eshitgan Risolat buvining so'zlari, uning oxirgi misralarida til va madaniyat birligi bo'lgan ostona so'zi ishlatilgan. "Qoqilganning ostonasidan o'tadi". Ostona so'zining birikmasi bo'lgan qoqilmoq so'zida matniy ma'no quyidagicha mazmunga ega: qoqilgan – yurib ketayotganda biror narsaga qoqilib yiqilmoq, umuman yiqilgan, ammo, matniy ma'nosi xato qilgan, tuzatib bo'lmaydigan xato ma'nosida ishlatilgan. Ya'ni oilali bo'la turib, boshqalar bilan don olishgan, shuningdek, ostona so'zi xonadon ma'nosini anglatib kelgan. Shu xonadonga xiyonat qildi. Lekin shuni ham ta'kidlash kerakki, qoqilgan so'zining ma'nosi xiyonat emas. Asar mazmunidan kelib chiqqan holda bu xato hisoblanadi, ammo kechirilmas xato. Umuman olganda, ostona mazkur matnda quyidagi ma'noga ega: xonadonning ostonasi, xonadon, oila yashash joyi, Vatan. Matniy ma'nosi: o'ylamasdan, kechirib bo'lmas, xato qilganning uyiga fojea o'lim keladi. Bu xato faqatgina o'zining xatosi emas, yagona farzandi, o'g'lining boshiga og'ir kunlarni soldi.

Shu asardan olingan keyingi parcha millatimizning asl mohiyatini, undagi odamiylikni zangori oynadek ochib bergan. Uning yetakchi mavzusi kechirimli bo'lish (Islom dinida hatto Yaratgan ham kechiruvchidir).

“Kampir endi uning muzdek sovib qolgan peshonasiga lab tegizdi. Payvasta qoshlarini siladi. Keyin qaltirab turgan barmoqlari bilan uning betiga kafan uchini yopdi:

– Kapalak kiygan keladi, kafan kiygan ketadi, - deya pichirladi kampir.

– Kapalak kiyib kelganding, bolam. Endi kafan kiyib ketyapsan. Asli bu kafan menga atalgan edi. Nima qilay, bu jon o'lgur chiqavermasa. Gunohlaringni gardanimga oldim, bolam. Kafanimni senga berdim. Pokiza tanga atalgan kafanimni berdim. Tinch yot, bolam. Orqangdan hech kim tosh otmaydi. Biron og'iz yomon gap aytmaydi. Ko'zim tirik ekan, seni yomonotliq qilmayman. Tong saharlarda tilovat qilib gunohlaringni sorab olaman. Bolam, meni qarg'ama. Mendan rozi bo'lib ket. Ravshanbekkinamning jasadi topilsa, yonginangga yotqizaman. Birga bo'lasizlar”.

Kichkina bir matnda qator lingvomadaniy so'z va so'z birikmalari ishlatilgan. Lingvomadaniy birliklarni tahlil qilishda ikki yo'nalish asosiy hisoblanadi. Birinchisi, lingvistik tahlil aynan leksik, ikkinchisi, madaniyat nuqtayi nazaridan tahlildir. Matnda quyidagi so'z birikmalari ishtirok etgan: Peshonasiga lab tegizdi, payvasta qoshlar, kapalak kiygan, kafan kiygan, “Kapolak kiygan keladi, kafan kiygan ketadi”, qandoq qilay, jon o'lgur chiqavermasa, gunohlaringni gardanimga (bo'yninga) oldim, hur g'ilmonlarga qo'shilib ket, tosh otmoq, ko'zim tirik. Shuningdek, lab tegizdi so'z birikmasi aynan shu matnda, peshonasidan o'pdi ma'nosini ham anglatadi.

Lab – barcha nutq uslublarida ishlatiladigan umumnutq so'zi. Ammo, kelinining kechirib bo'lmas gunohlarini eslab, kampir faqatgina lab tegizdi, lekin, o'pmadi. Shunga qaramasdan u kelinini kechirdi. Shu bois mayitaning payvasta qoshlarini siladi. Payvasta forscha - doimiy, uzluksiz; birikkan, qo'shilgan; o'zaro

bog‘langan, tutashgan. [2.201b.] Matndagi keying jumla ham Ravshanbek onasining nutqiga doir bo‘lib, xalq maqolidan olingan. “Kapalak kiygan keladi, kafan kiygan ketadi” ya’ni, inson kapalakdek pokiza va beg‘ubor holda dunyoga keladi, lekin bu dunyo tashvishlari uni shu holda ketishiga to‘sqinlik qiladi (kiyimsiz dunyoga keladi, ammo, kafan kiyib ketadi). Shuni ham e’tiborga olish kerakki, kafan faqatgina islom diniga xos bo‘lib, uning muhim marosim qismi hisoblanadi va kafansiz qabrga qo‘yish mumkin emas. Hattoki, juda og‘ir, ilojsiz holatda ham bu udumga rioya qilishadi.

Yana shuni ham e’tiborga olish lozimki, keltirilgan turg‘un birikma kampirning kelini Bodomgulga nisbatan ishlatilgan bo‘lib, uning shu xonadon ostonasiga qadam qo‘ygan vaqtidagi tashqi ko‘rinishi farishta kapalakdek, farishta qiz bo‘lib keldi-yu, kafan kiyib ketdi.

Xulosa ornida shuni ta’kidlash joizki, yuqorida tahlil qilingan “ostona” lingvomadaniy birligi tarkibidan o‘rin olgan birliklar ikki tomonlama ilmiy tahlil qilinganda ularning lingvistik (xususan leksik) yo‘nalishida lug‘atlarda aks ettirilmagan ichki ma’no-mazmun ifodalashi nazariy asoslarimiz uchun amaliy dalillar hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Л.Г.Бабенко, Ю.В.Казарин “Лингвистический анализ в художественного текста”. – Москва. Издательство – «Флинта» 2003, 30-б.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 3-tom. – Toshkent, 2002. 201 b.
3. S.Ahmad “Jimjitlik”. – Toshkent, 1989. 146 b.